# Ertaga chegirmalar kuni! Unutmang

**2025 5 Mart**

6-martkuni "Yorqin payshanba" aksiyasi doirasida Toshkentdan Olmaota, Ostona, Boku, Bishkekga va ortga, shuningdek Namangandan Irkutskga va ortga qaytuvchi aviaqatnovlar uchun tariflar narxidan 15% gachachegirma e’lon qilamiz.

Aksiya faqat bir kun – 00:00 dan 23:59 gacha amal qiladi. Aviachiptalarni www.uzairways.com saytidan, ilovadan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin. Yoʻlovchi va yuk tashish tarifiga qoʻshimcha ravishda turli soliqlar, yigʻimlar va qoʻshimcha toʻlovlar belgilanadi, ularga 15% gacha chegirma qoʻllanilmaydi.

Aksiyasining batafsil shartlari:

1. Aksiya muddati 2025-yil 6-mart soat 00:00 dan 23:59 gacha;
2. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:

- kattalar uchun tarifdan – 15% gacha;
- 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha boʻlgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 15% gacha;
- chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha boʻlgan bolalar uchun amal qilmaydi;

3. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yigʻimlarga nisbatan qoʻllanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
4. Ilgari sotib olingan aviachiptalar 06.03.2025da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qoʻllanilmaydi;
5. Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya’ni chegirma qoʻllanilgan holda) amalga oshiriladi;
6. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qoʻllanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e’lon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);
7. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;
8. Chegirma e’lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentdan Olmaota, Ostona, Boku, Bishkekga va ortga, shuningdek Namangandan Irkutskga va ortga qaytuvchi toʻgʻridan-toʻgʻri yoʻnalishlar uchun taqdim etiladi. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e’lon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi.

*Uzbekistan Airways Oʻzbekistondagi eng yirik aviakompaniya hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyati maqomiga ega. Uning aviaparkida Boeing 767/787, Airbus A320ceo/320neo/321neo/A330, L-410, ATR-72 kabi havo kemalar mavjud.*

*Yoʻnalishlar tarmogʻi va havo kemalar parkini doimiy ravishda kengaytirmoqda hamda koʻrsatilayotgan xizmatlar darajasini yaxshilaydi. Parvoz xavfsizligi esa aviakompaniya uchun doimo ustuvor vazifa boʻlib qoladi.*

*Uzbekistan Airways muntazam, charter va yuk tashuvchi aviqatnovlarini hamda Uzbekistan Airways Express loukoster tizimi bo‘yicha ham parvozlarni amalga oshiradi.*

*Uzbekistan Airways tarkibiga “Uzbekistan Helicopters” MChJ, “Uzbekistan Airways Technics” MChJ, “Catering” MChJ, “O‘quv-mashq markazi” MChJ kabi kompaniyalar ham kiradi.*